GLOBAL JOURNAL OF CROSS-DISCIPLINARY INNOVATIONS
Multidisciplinary peer-reviewed scholarly journal
GJCDI
Vol. 1 | Issue 3
Year: 2026

# Qadimgi Bobil podsholigi

**To’xtasinov Ibrohim Murodjon og’li**

**Farg‘ona davlat texnika universiteti**

toxtasinovibrohim65@gmail.com

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada qadimgi Bobil davlati tarixi tabiiy sharoiti va aholisi hamda hukmdorlari haqida ma’lumotlar keltiriladi hozirgi davrda ham Bobil davlati olimlarimiz tomonidan yetarlicha o‘rganilmoqda shular haqida ham so'z olib boriladi umuman olganda ushbu maqolada Bobilni har tomonlama o‘rganishga harakat qilindi va yetarlicha malumotlar kirgizishga harakat qilindi

**KALIT SO'ZLAR:** Sulolalar, podsho Xamurappi,avelium, o‘rta Bobil davri, xudolar darvozasi,ishtar, Amoriylar.

Bobil- (Vavilon) — Mesopotamiyaning janubiy qismi miloddan avvalgi 2- ming yillikning boshidan miloddan avvalgi 538-yilgacha mavjud bo‘lgan qadimgi davlat. Markaziy shahri Bobil nomidan olingan. Miloddan avvalgi 3-ming yillikda Mesopotamiyada shahar-davlatlar paydo bo‘lgan edi. Bobil shahri vujudga kelmasdan oldin Dajla va Furot daryolari orasida — Shumer va Akkad davlatlari mavjud bo‘lgan. Miloddan avvalgi 21-asr oxirida ko‘chmanchi semit (somiy) qabilalaridan biri amoriylar Akkadning katta bir qismini bosib olgach, qudratli davlat barpo etib, Bobil shahrini markaz qilganlar. Shu davrda elamliklar ham Shumerda o‘rnashib olgan. Mesopotamiyada hukmron bo‘lish uchun amoriylar bilan elam qabilalari o‘rtasidagi kurashda amoriylar g‘olib chiqqan. Qadimiy Bobil podsholigida amoriylar sulolasi (miloddan avvalgi 1894—1518) mustahkamlanib olgan. Bu sulola podsholaridan Hammurapi (miloddan avvalgi 1792—1750) Shumerni ham o‘z davlatiga qo‘shib olgan. Mustabid davlatni mustahkamlash maqsadida Hammurapi buyrug‘i bilan yuqori

tabaqalarning manfaatini qo‘riqlashga qaratilgan qonunlar majmuasi tuzilgan. Bu qonunlar yerga egalik, savdo-sotiq, qulchilik, iqtisodiyijtimoiy munosabatlarni tartibga solgan. 247 moddadan iborat qonunlar to‘plami bazalt ustuniga arxaik mixxat bilan yozilgan. Bobil davlatining eng ravnaq topgan davri — Hammurapi hukmronligi

davridir. Hammurapidan keyin Bobil davlati tushkunlikka yuz tuta boshlagan [1]

Ushbu mavzuga oid adabiyotlarga Abdujabbor Kabirov "Qadimgi sharq tarixi " Toshkent 2016 "tafakkur nashriyoti " mazkur o‘quv qo‘llanmada qadimgi Misr Mesopotamiya Bobil kichik Osiyo Arabiston Xitoy Koreya Hindiston xalqalar va davlatlarining tarixi ,xo‘jaligi moddiy va manaviy madaniyati haqida ma’lumot berilgan. Vsevolod Avdiyev "Qadimgi sharq tarixi" Toshkent 1964yil bunda qadimgi sharq haqida ma’lumotlar shuningdek davlatlari hamda chegaralar haqida aytilgan.F.Boynazarov "Qadimgi dunyo tarixi" Toshkent 2004yil bunda ham sharq davlatlari haqida Bobil mesopatamiya Misr xalqlari haqida ma’lumotlar mavjud. R.Rajabov "Qadimgi dunyo tarixi " asari ushbu maqolaga oiddir Bobil davlati haqida ma’lumotlar mavjud Anatoliy Sagdullayev kabilar.

Miloddan avvalgi 7-asrda Bobil ossuriyaliklar tomonidan ikki marta (689 va 648 yillar) vayron etilgan. Miloddan avvalgi 626 yil Ossuriyaning Bobildagi noibi, xaldeylar qavmidan bo‘lgan Nabopalasar Ossuriyadan ajrab chiqib o‘zini Bobil podshosi deb atagan. Shu vaqtdan Yangi Bobil podsholigi yoki Xaldey davri (miloddan avvalgi 626—538) boshlanadi. Nabopalasar Midiya podshosi Kiaksarga Ossuriya bilan urushida yordam berib Ossuriya davlati xududini u bilan bo‘lishib olgan. Nabopalasarning o‘g‘li Navuxodonosor II (Sharq adabiyotida „Buxtunnasr“) (miloddan avvalgi 604—562) misrliklarni Old Osiyodan batamom siqib chiqargan. Miloddan

avvalgi 586 yil Kuddusni vayron qilgan, Yahudiya Bobil viloyatiga aylangan, 574 yil Tirni egallagan. Yangi Bobil podsholigi davrida Bobil shahri ijtimoiyiktisodiy jihatdan taraqqiy etgan, savdo, xunarmandchilik, binokorlik rivojlangan eng yirik shaharlardan biriga aylangan. Navuxodonosor kurgan dabdabali binolarning harobalari hozirgacha sakdanib kelgan.

„Bobil“ deb yuritiladigan tepalik kazilganida, katta bir saroy harobasi, „qasr“ tepachasi

qazilganda Navuxodonosor zamonidan qolgan ajoyib binolar topildi. Ularning devorlari gullar solingan sirli koshinlar bilan bezatilgan. Diniy marosimlarda yuriladigan muqaddas yo‘l ham shu saroy yonidan o‘tgan. Bu yo‘lga toshdan yo‘nilgan plitalar yotqizilgan, plitalarda mixxatlar saqlangan. Navuxodonosor davrida Bobil podsholigi o‘z

taraqqiyotining ikkinchi yuksalish davriga chiqqan. 555 yildagi davlat o‘zgarishidan so‘ng Bobil taxtiga o‘tqazilgan Nabonid (miloddan avvalgi 555—538) mamlakatning bir butunligini saqlash uchun harakat qiddi, lekin axomaniylar podshosi Kir //miloddan avvalgi 538 yilda Bobilni o‘z davlatiga qo‘shib oldi. Bobil podsholigi shu tariqa quladi.quyosh kalendari 365 kun davri(miloddan avvalgi 1792—1750) ga kelib esa nafaqat Mesopotamiyaning, balki butun Old Osiyoning yirik siyosiy, madaniy va xo'jalik markaziga aylangan(taxminan 1595-yil). Bobil dastlab xettlar, so‘ngra taxminan 1518-yil kassitlar bosib olgan. XIII-XII asrlarda shahar Ossuriya podsholari Tukultininurti I va Tiglatpalasar I tomonidan ikki marotaba vayron etilgan. Miloddan avvalgi 1-ming yillik boshlarida Ossuriya va oromiy qabilalaridan xaldeylar o‘rtasida Bobil uchun kurash bo‘lgan. Miloddan avvalgi 732-yildan Bobil Ossuriya davlati tarkibida. Miloddan avvalgi 689-yil shahar isyon ko‘targanligi sababli Ossuriya podshosi Sinaxerib tomonidan butkul vayron etilgan (taxminan miloddan avvalgi 680-yil). Sinaxeribning vorisi Asarxaddon tomonidan qayta tiklangan. Miloddan avvalgi

626-yil Blagi hokimiyatni xaldey Nabopalasar (626—604) egallab olgan. Navuxodonosor II (604—562) davrida shahar gullab yashnagan va ravnaq topgan. 538-yil Bobilni forslar shohi Kir bosib olgan. Miloddan avvalgi 331-yil Bobilni Iskandar Zulqarnayn zabt etgan. Miloddan avvalgi 312-yil Bobil Iskandarning sarkardalaridan biri Salavk qo‘li ostiga o‘tgan. Shu paytdan e’tiboran B. yetakchilik mavqeyini yo‘qota borgan va milodiy II asrga kelib tarix sahnasidan uzil-kesil tushib ketgan.[2]

Miloddan avvalgi II ming yillikda Bobil podsholigi Mesopotamiya janubidagi eng yirik qudratli davlatga aylandi. Bobil qulay geografik o‘ringa ega bo‘lib, Frot va Dajla daryolarining o‘zanlari bir-biriga yaqinlashib ketadigan hududda joylashgandi. Kemalarda turli mahsulotlar bilan suzib kelgan savdogarlar bu shaharga qo‘nib o‘tishardi. «Bobil» so‘zining o‘zi esa «xudolar darvozasi» degan ma’noni anglatadi. Bobil shahrida ajoyib saroylar, muhtasham ibodat xonalar bo‘lgan. Bobilning bosh ko‘chasi g‘alaba ilohasi Ishtar darvozasidan boshlangan. Bobil davlatida dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlangan. Ammo o‘zaro urushlar ham bo‘lib turgan.Iloha Ishtar nomidagi darvozaning naqshlariMil. avv. XVIII asrda Bobil podshosi

Xammurapi butun Mesopotamiyani yagona davlatga birlashtirishga muvaffaq bo‘ladi. Xammurapi hukmronligi davrida Bobil eng qudratli davlatga aylanadi

Xamurappi qonunlariXammurapi tarixda qonunlar tuzgan birinchi hukmdor sifatida nom qoldirgan. Uning qonunlari ilgari mavjud bo‘lgan barcha qonunlardan ustunlik qiladi. Xammurapi qonunlari hamma uchun – badavlat va qashshoq kishilar uchun birdek bo‘lgan. Qonunlarning matnlari mamlakatning barcha shaharlarida o‘rnatilgan tosh ustunlarga yozib qo‘yilardi. Xammurapi qonunlari qat’iyligi bilan kishini lol qoldiradi. Xususan, shifokor amalga oshirgan jarrohlik muolajasi natijasida

bemor bevaqt vafot etsa, shifokorning qo‘llari kesib tashlanishi shart bo‘lgan. Binokor qurgan uy to‘satdan qulab, biror kishini bosib qolsa, binokor qatl etilishi qayd qilingan. Yong‘in mahalida o‘g‘rilik ustida qo‘lga tushgan kimsa o‘sha zahoti olovga otilgan. Qulfbuzar o‘g‘ri ham qattiq jazoga mahkum etilgan. Xammurapi qonunlari nomigagina podshoning qarori bo‘lmasdan, xudolar xohish-irodasi sifatida talqin etilgan. Shuning uchun ham ularni so‘zsiz, og‘ishmasdan bajarish talab qilinardi. Xammurapi qonunlari talon-toroj va o‘g‘rilik kabi jinoyatlarni to‘xtatishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan.[3]

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki qadimgi Bobil eng qadimgi va mashhur svilzatsiyalarda biridir u mil avv 18 asrlar oralig‘ida mesopatamiyada joylashgan davlatdir tarixda iqtisodiy madaniy va ilmiy taraqqiyotning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan Bobilning eng mashhur xususiyatlari orasida Xamurappi qonunlari babel minorasi va Bobillik ilm fan va adabiyot sohasidagi yutuqlarni ajratish mumkin shuningdek bu davrda arxitektura va shaharsozlikda yirik yutuqlar qo‘lga kiritilgan.

Xamurappi qonunlarini o‘rganish:qonunlar, adolat tizimi va jamiyatdagi xuquqiy normalarni chuqurroq o‘rganish uchun tarixiy manbalarga tayanish zarur.bu qadimgi jamiyatlarda adolat va huquqni saqlash qanday amalga oshirilganini tushunishga yordam beradi .2.Bobil arxitekturasi o‘rganish :Babel minorasi va boshqa me’moriy yodgorliklar qadimgi Bobil arxitekturasi o‘ng oziga xos xususiyatlarini o‘rganish ularning jamiyatdagi roli va tarixiy ahamiyatini aniqlash talab qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Kabirov "Qadimgi sharq tarixi"Toshkent 2016 tafakkur nashriyoti
2. F. Boynazarov."Qadimgi dunyo tarixi" Toshkent 2004.
3. Vsevolod Avdiyev "Qadimgi sharq tarixi"Toshkent 1964y
4. R.Rajabov "Qadimgi dunyo tarixi"

5. Anatoliy Sagdullayev "Qadimgi sharq tarixi"

6. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES, 2(9), 57-62.

7. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР.

Science and innovation, 3(Special Issue 3), 141-144.

8. Begaliyev, N. X. (2022). ETNOLOGIK TADQIQOTLARDA TERMINOLOGIYA

MUAMMOSI. Oriental Journal of Social Sciences, 2(2), 69-72.

9. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).

10. Sobit, K. (2023). THE LAUNCH OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE NEIGHBORHOODS OF SHAHRISABZ CITY. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(1), 398-401.

11. Sunnatovich, Q. I., & Sobit, K. (2023). VARGANZA QISHLOG‘IDAN TOPILGAN YODGORLIKLAR TARIXI (I-XV ASRLAR). JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(9), 33-35.

12. Bobokulovna, Q. F. (2024). RESPUBLIKA “TADBIRKOR AYOL” UYUSHMASINING AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOLANTIRISHDAGI ROLI. TADQIQOTLAR. UZ, 35(1), 111-113.

13. Qanoatova, F. (2024). TURIZM RESURSLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING AHAMIYATI. YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).

14. Tolibov, N. (2024). EKOTURIZM SOHASIDA TARIXIY JOYLAR VA OBIDALARNING AHAMIYATI. YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).

15. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.

16. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.

17. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.

18. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o‘g‘li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.

19. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o‘g‘li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.

20. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(0